

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TURSUNOVA ZARNIGOR RUSTAMOVNA

**INTEGRATSIYALASHGAN MAHSULOT ISHLAB CHIQARISHGA
IXTISOSLASHGAN BIZNES TUZILMALARINI BOSHQARISH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13 – Menejment

**iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
DISSERTATSIYASI**

**Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari doktori,
professor Yo'ldoshev N.Q.**

Toshkent-2025

Mundarija

	KIRISH.....	3
I BOB	INTEGRATSIYALASHGAN MAHSULOT ISHLAB CHIQARISHGA IXTISOSLASHGAN BIZNES TUZILMALARINI BOSHQARISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	12
1.1.	Integratsiyalashgan ishlab chiqarish korxonalarini boshqarishning ilmiy-nazariy asoslari.....	12
1.2.	Ishlab chiqarish korxonalarini integratsiyalash turlari va ularni boshqarish usullari.....	26
1.3.	Integratsiyalashgan ishlab chiqarish korxonalari va klaster modellarining xorij tajribalari.....	40
	Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	57
II BOB	PAXTA TOLASIGA ISHLOV BERISH BOSQICHLARINI INTEGRATSIYALASH TAHLILI.....	60
2.1.	Paxta tolasiga ishlov berish bosqichlariga ixtisoslashgan korxonalarning tahlili.....	60
2.2.	To'qimachilik sanoatidagi integratsiyalashgan korxonalarning iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....	71
2.3.	To'qimachilik sanoatidagi integratsiyalashgan korxonalar rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....	83
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	98
III BOB	INTEGRATSIYALASHGAN MAHSULOT ISHLAB CHIQARISHGA IXTISOSLASHGAN BIZNES TUZILMALARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	100
3.1.	Integratsiyalashgan tuzilmalarda ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish.....	100
3.2.	Integratsiyalashgan sanoat korxonalarida materiallar oqimini boshqarishning zamonaviy vositalar.....	108
3.3.	Integratsiyalangan korxonalarni boshqarishda divizional tuzilmalarni qo'llash.....	125
	Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	145
	XULOSA.....	145
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	149
	ILOVALAR.....	159

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo mamlakatlarida integratsiyalashgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan biznes tuzilmalarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Integratsiyalashgan ishlab chiqarish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy menejment strategiyalaridan foydalanib, birlamchi xom ashyodan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishgacha bo'lgan jarayonlarning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. 2023 yilda jahon to'qimachilik bozori qariyb 993,6 milliard dollarni tashkil qildi. 2027 yilga kelib, uning qiymati 1,3 trillion dollardan oshishi kutilmoqda. 2023 yilda jahon kiyim-kechak bozori taxminan 1,5 trillion dollarni tashkil etdi. 2027 yilga kelib uning qiymati deyarli 2 trillion dollarga yetishi kutilmoqda. To'qimachilik va tikuvchilik biznesi butun jahon iqtisodiyotining 2-3% ni tashkil qiladi¹.

To'qimachilik sanoati tobora rivojlanib, tabiiy tolalar va kiyim-kechak sohasida keng qo'llanilishi tufayli sanoatda yetakchilik qildi va 2023 yilda daromadning 44,1% ni egalladi. Atrof-muhit muammolari, barqaror mahsulotlarga bo'lgan iste'molchilar talabi va tabiiy tolalar narxining oshishi tufayli global to'qimachilik bozori yanada kengayishi taxmin qilinmoqda². Dunyo mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy integratsiya ishlab chiqarish samaradorligi, raqobatdoshlik hamda aholining turmush darajasini oshirishning muhim omillaridan biridir. Bugungi kunda mamlakatimizda istiqbolli integratsiyalashgan ishlab chiqarish korxonalarining mahsulotlarini raqobatbardoshligini oshirish orqali jahon bozorida yangi segmentlarga kirib borish va ularni kengaytirish masalalari dolzarb bo'lib, bu yo'l bilan tashqi iqtisodiy faoliyatni jadallashtirish hamda jahon mehnat taqsimotida munosib o'rin egallash rejalashtirilmoqda. Zero, mamlakatimiz iqtisodiyotida ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish, innovatsion va

¹ Globaltextiletimes.com

² Textile-marketGlobalTextileMarket.uz

yuqori samarali texnologiyalarni joriy etish orqali global iqtisodiyotga integratsiyalashuvga erishish mumkin.

“O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risidagi 11.09.2023 yildagi PF-158 sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonida ko‘rsatilganidek, sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatlarini to‘liq ishga solish hamda sanoatda qo‘shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish va 2,5 millionta yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish, to‘qimachilikda ip kalavani qayta ishlash darajasini 100 foizga yetkazish hamda yuqori sifatli matoga talabni qondirish uchun 400 ming tonna sun‘iy va aralash tola ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish kabi vazifalar qo‘yilgan³. Ushbu vazifalarning samarali amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar, ayniqsa, iste’mol tovarlari ishlab chiqarishni rivojlantirish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, eksport faoliyatini erkinlashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibi hamda geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiy tarmoqlar va hududlar, jumladan to‘qimachilik sanoatining eksport salohiyatini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risidagi 11.09.2023 yildagi PF-158 sonli farmonida belgilangan vazifalar hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi” farmonida belgilangan vazifalar shu bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 14 yanvardagi PQ-4949-son “2021 yilda O‘zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 31 martdagi 253-sonli “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori⁴

³ “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risidagi 11.09.2023 yildagi pf-158 sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni

⁴ Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi va uni 2022 yilda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”.

hamda mazkur yo‘nalishdagi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2018 yildagi 253-sonli “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori⁵ hamda ushbu yo‘nalishdagi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ma‘lum darajada tayanch vazifasini o‘taydi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi Dissertatsiya tadqiqotlari O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik davlat va huquqiy jamiyatning ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy taraqqiyoti, innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq amalga oshirildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Iqtisodiyotimizda integratsiyalashgan mahsulot ishlab chiqarishga asoslangan biznes tuzilmalarini boshqarish mexanizmlari P.Maskell, M.Lorenzen, M.Storper, M.Enrayt, S.Resenfeld, M.Porter, T.Andersen, K.Ketels, S.Breschi, P.Druker, M.Castells, E.Canari, YU.Kimura, P.Krugman, G.Mensch, K.Kutsun, A.Kuchiki, B.Lundval, R.M.Marsh, hamda U.Migari, O.Solvela, G.Uayt, K.Freemann, S.Xarrison, J.Xenderson, D.Xiljers, J.Shumpeter⁶ va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Korxonalarda ishlab chiqarishni integratsiyalash shakllari bilan shug‘ullangan zamonaviy olimlar orasida D.P.Barsukov, D.M.Begov, V.I. Vagizova, V.V. Ilin, YU.A.Axenbax, N.N Shutko, G.D. Boush, L.L. Butuzova, R.R. Toxchukov, E.V. Chemodanov, A. Fridman, A.A. Migranyan, T.V.Uskova, Ye.V. Volkodavova, T.I.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2018 yildagi 253-sonli “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori

⁶ Maskell P., Lorenzen M. The Cluster as Market Organization// DRUID Working Paper. 2003. No 14. 2003; русск. пер.: Конкуренция; СПб; Киев: Изд. дом «Вильямс», 2005. Porter M. E. Clusters and the New Economics of Competition / M.E.Porter // Harvard Business Review. – 2018. – Vol.76 (6). – P.77–90. Porter M. E. Clusters and Competition: New Agen-das for Companies, Governments, and Institutions / M.E.Porter // Harvard Business School Working Paper. – 1998. – Vol.98-080. - P. 197-287. Storper M. The Regional World: Territorial Development in Global Economy/ M.Storper. - N. Y.: Guilford Press, 1997. – 338 p. Enright M.J. Why Clusters are the Way to Win the Game? // World Link, No 5, July/August, 1992. - Pp. 24, 25. De Propriis, Lisa and Driffield, Nigel. The importance of clusters for spillovers from foreign direct investment and technology sourcing // Cambridge Journal of Economics. 2006. No 30. Enright M.J. Why Clusters are the Way to Win the Game?// Word Link. - 1992. - No5, July/August. Rosenfeld S.A. Bringing Business Clusters into the Mainstream of Economic Development // European Planning Studies. 1997. No 5.

Maksimova, L.I.Pronyaeva, O.A. Fedotenkova, A.V. Pavlova, V.V. Pechatkin, M.A. Nikolaev⁷ va boshqalarni alohida aytib o'tish mumkin.

Mahalliy olimlar orasida integratsiyalashgan korxonalar hamda to'qimachilik korxonalari, boshqaruv muammolari S.S.G'ulomov, M.Sharifxo'jaev, YO.Abdullaev, N.Q.Yo'ldoshev, M.R.Boltabaev, Z.T.Gaibnazarov, Z.A.Xakimov, S.SH.Yusupov, X.Kodirov, Qosimova D.S, K.R.Xonkeldieva, B.O.Tursunov, F.P.Azimova, I.A.Toshpulatov⁸ kabi iqtisodchi-olimlar tomonidan o'rganilgan.

⁷ Барсуков Д. П. Формирование промышленного кластера: теоретические и методические аспекты: монография/ Д. П. Барсуков, В. С. Кудряшов: под общ. ред. Д. П. Барсукова. - СПб.: СПбГУКиТ, 2014. - 170 с. 12. Барсуков Д.П., Караева Ф.Е., Шогенова И.Б. Организационно- экономические аспекты развития региона в условиях кластеризации// Петербургский экономический журнал. 2019. №1. Бегов Д.М. Эффективность формирования регионального хлопково-текстильного кластера (на материалах Согдийской области). Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Душанбе, 2020. Горетов И.Н. Кластерные технологии в управлении АПК// Вестник ЧГУ. 2009. №1. Вагизова В.И. Кластеризация как инновационная форма диверсификации хозяйственных систем и фактор повышения конкурентоспособности экономики Татарстана// Проблемы современной экономики. - 2009. - № 4. В.В. Ильин "Методы формирования кластеров в промышленности" Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Ю.А.Ахенбах "Формирование и развитие научно-производственных кластеров в регионе: теория, методология, практика" Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук. Н.Н Шутко "Управление процессами формирования кластеров в мезоуровневых системах" Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Г.Д. Боуш "Формирование и развитие промышленных кластеров: теория и методология" диссертация на соискание учёной степени доктора экономических наук. Л.Л. Бутузова "Формирование производственно-инновационных кластеров промышленных предприятий" Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук.

⁸ Gulyamov S.S. Ijtimoiy sohada investitsiyalarning samaradorligi. Monografiya. – T: IQTISODIYOT, 2019.; Sharifxo'jaev M., Abdullaev Yo. Menejment: darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2001 y.; Yo'ldoshev N.K., Zaxidov G.E. Menejment. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston milliy faylasuflari jamiyati, 2018. – 392 b.; Boltabaev M.R. O'zbekiston Respublikasi to'qimachilik sanoati eksport imkoniyatlarini rivojlantirishda marketing strategiyasi: doktorlik dissertatsiyasi. – T.: TDIU, 2005. – 242 b.; Maxmudov N.M., Akobirova D. Strategiya innovatsionnogo razvitiya promishlennosti Respubliki Uzbekistan v period modernizatsii ekonomiki. Monografiya. – T.: Iqtisodiyot, 2011. – 352 b.; Xakimov Z.A. Engil sanoat korxonalari raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2017. – 141 b.; Yusupov S.Sh. Kuchli raqobat sharoitida O'zbekiston to'qimachilik sanoati korxonalarini rivojlantirish strategiyalari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2018. – 144 b.; Toshpulatov I.A. To'qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligini boshqarish tizimini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: TDIU, 2019. –137 b. Kadirov X. Tikuvtrikotaj korxonalarining eksport salohiyatini xalqaro marketing strategiyalari asosida oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Qosimova D. "O'zbekneftgaz" MXK ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish va undan samarali foydalanishni boshqarish Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya 2006. Xonkeldieva K.R. To'qimachilik sanoati klasterlari faoliyatida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Azimova F.P. To'qimachilik sanoati korxonalari faoliyati samaradorligini boshqarishni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.

Shu bilan birga, bu sohada mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning ko‘plab tadqiqotlari mavjud bo‘lishiga qaramay, integratsiyalashgan mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan biznes tuzilmalarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishda qo‘shimcha tadqiqotlar talab etiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ilmiy ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston Respublikasida integratsiyalashgan mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan biznes tuzilmalarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog‘liq taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Integratsiyalashgan korxonalarda boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari;

Ishlab chiqarish korxonalarini integratsiyalash turlari hamda ularni boshqarishni yoritish;

Integratsiyalashgan ishlab chiqarish korxonalari va klaster modellarining xorij tajribalari;

Paxta tolasiga ishlov beruvchi korxonalarning integratsiyalashgan tuzilmalarini o‘rganish;

Integratsiyalashgan biznes tuzilmalarda mahsulotlar xarajatlarini qisqartirish bo‘yicha yondashuv ishlab chiqish;

Integratsiyalashgan sanoat korxonalarida materiallar oqimini boshqarishning zamonaviy vositalarini taklif etish;

Integratsiyalashgan korxonalar tuzilmasini boshqarishda divizional tuzilmalarni qo‘llash bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida «O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasi tarkibidagi korxonalarning integratsiyalashuvini boshqarish tizimi olingan.

Tadqiqotning predmeti paxta xom-ashyosiga ishlov berish jarayonining turli bosqichlarida boshqaruvni tashkil etish masalalaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimli yondashuv, tahlil va sintez, solishtirma va qiyosiy tahlil, statistik va ekonometrik, xususan, korrelyatsion-regressiya va variatsion tahlil usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tarkibidagi paxta xom ashyosini qayta ishlashning turli bosqichlariga ixtisoslashgan korxonalarni boshqarishni funksional tuzilmadan mahsulot turiga va eksport hududlariga moslashtirish zarurligi asoslangan;

“UZTEX GROUP” klasteri korxonalarida ishlab chiqarish personali sonining o‘sishi ip - kalava hajmiga ijobiy, boshqaruv xodimlarining soni o‘sishi salbiy ta’sir ko‘rsatganligini hisobga olib, ushbu korxonalarda mehnat resurslarini qayta tarkiblashtirish tavsiya etilgan;

“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tarkibidagi korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsientlarini ko‘tarish uchun korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlarini muvozanatlashtirish tavsiya etilgan.

O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoatining 2030-yilgacha rivojlanishining prognoz ssenariylari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

iqtisodiy rivojlanishda integratsiyaning ahamiyati ochib berilgan;

O‘zbekistonda paxta tolasiga ishlov berish bosqichlariga ixtisoslashgan korxonalarning rivojlanishi tahlil qilinib, ilmiy xulosalar chiqarilgan;

ixtisoslashgan korxonalarni integratsiyalash usullari tadqiq etilgan;

paxta tolasiga ishlov beruvchi korxonalarning integratsion tuzilmalari o‘rganilgan;

integratsiyalashgan tuzilmalarda mahsulotlar xarajatlarini samarali boshqarish va ularni kamaytirish hamda xarajatlarini optimallashtirish bo‘yicha yondashuv ishlab chiqilgan;

integratsiyalashgan sanoat korxonalarida materiallar oqimini boshqarishning zamonaviy usullari taklif etilgan;

integratsiyalangan korxonalarni boshqarishda divizional tuzilmalarni qo'llash bo'yicha amaliy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ish jarayonida qo'llanilgan yondashuvlar va usullarning maqsadga muvofiqligi, axborot bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalar tasdiqlanganligi, natijalarning iqtisodiy nazariyalarga muvofiqligi, uyushma tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotda olingan natijalar integratsiyalashgan mahsulotlar ishlab chiqarishga asoslangan biznes tuzilmalarini boshqarish mexanizmlarini yanada takomillashtirishda qo'llanilishi mumkin. Bunday yondashuv, nafaqat biznes jarayonlarini samarali boshqarish imkonini beradi, balki sanoatning ilmiy asoslarini ham mustahkamlashga yordam beradi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa, uning natijalarini to'qimachilik sanoatini yanada rivojlantirishda, shuningdek, integratsion mahsulot ishlab chiqarishga asoslangan biznes tuzilmalarini boshqarishning samaradorligini oshirishda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishidir. Ushbu yondashuvlar, sanoatdagi raqobatbardoshlikni oshirish, resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy natijalarni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Davlatning sanoat sohasidagi siyosatini, iqtisodiyot sohasining to'qimachilik sohasiga oid dasturlarini ishlab chiqishda, mintaqaviy darajada taklif etilayotgan metodologiyada integratsiyalash tizimini takomillashtirishda, boshqaruv tuzilmalari samaradorligini oshirish yo'llari hamda ustuvor yo'nalishlarini aniqlashda, mamlakat va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilashda foydalanish mumkin. Bu ishda taklif qilingan integratsion mahsulotni ishlab chiqarishga asoslangan biznes tuzilmalarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining to'qimachilik sektorini yana-da takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Integratsiyalashgan mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan biznes tuzilmalarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tarkibidagi paxta xom ashyosini qayta ishlashning turli bosqichlariga ixtisoslashgan korxonalarni boshqarishni funksional tuzilmadan mahsulot turiga va eksport hududlariga moslashtirish zarurligi bo‘yicha takliflar «O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasi tarkibidagi korxonalar amaliyotiga joriy etish uchun qabul qilingan. («O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasining 9-aprel 2025 yildagi №03/12-772 joriy etish ma’lumotnomasi). Ushbu taklifni joriy etish natijasida “UZTEX GROUP” klasteri tarkibidagi korxonalarda boshqaruv tuzilmalari ixchamlashib, iqtisodiy samaraga ya’ni 452751989,8 so‘m iqtisod qilishga erishildi.

“UZTEX GROUP” klasteri korxonalarida ishlab chiqarish personali sonining o‘sishi ip – kalava hajmiga ijobiy, boshqaruv xodimlarining soni o‘sishi salbiy ta’sir ko‘rsatganligini hisobga olib, ushbu korxonalarda mehnat resurslarini qayta tarkiblashtirish tavsiya etilgan. Ushbu taklif qabul qilindi va amaliyotga joriy etildi. («O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasining 9-aprel 2025 yildagi №03/12-772 joriy etish ma’lumotnomasi).

“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tarkibidagi korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsientlarini ko‘tarish uchun korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlarini muvozanatlashtirish tavsiya etilgan. («O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasining 9-aprel 2025 yildagi №03/12-772 joriy etish ma’lumotnomasi). “UZTEX GROUP” klasteri tarkibidagi korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsientlarini ko‘tarish uchun korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlarini muvozanatlashtirish tavsiya etilgan. Ushbu taklif amaliyotga joriy qilinishi natijasida ushbu klaster korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsienti 0,12 ga ko‘tarildi.

O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoatining 2030-yilgacha rivojlanishining prognoz ssenariylari «O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasi faoliyatiga joriy etildi. («O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasining 9-aprel 2025 yildagi №03/12-772 joriy etish ma’lumotnomasi). Natijada uyushmaning 2030 yilgacha rivojlantirish strategiyasini takomillashtirildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishida natijalar 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusida jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan, 6 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan asosiy ilmiy nashrni chop etish uchun tavsiya etilgan maqolalar chop ettirildi, shuningdek 5 ta ma'ruza tezisi ilmiy-amaliy konferensiya to'plamlarida chop etildi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 148 betni tashkil qiladi.

I-BOB. INTEGRATION MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISHGA ASOSLANGAN BIZNES TUZILMALARINI BOSHQARISHNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI

1.1. Integratsiyalashgan ishlab chiqarish korxonalari boshqarishning ilmiy- nazariy asoslari

Bozor mexanizmlarining yuqori texnologiyalarni ta'minlashni ishlab chiqish hamda sanoat integratsiyasi asosida biznesni rivojlantirish yo'nalishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Xorijdan keltirilayotgan ilg'or muhandislik ishlanmalari, zamonaviy texnika va texnologiyalar, shuningdek, uskunalarning asosiy qismi, avvalo, to'qimachilik korxonalarining taraqqiyoti uchun qulay sharoit yaratmoqda. Biroq, to'qimachilik sanoatini yanada chuqurroq rivojlantirish zarurati kundalik hayotga kirib kelmoqda. Shunday qilib, qo'shilgan qiymatni oshirish va ishlab chiqarish jarayonlarini yanada takomillashtirish, eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu maqsadga erishish uchun mahalliy ishlab chiqaruvchilar barqaror iqtisodiy munosabatlar mexanizmini ishlab chiqishlari va o'z faoliyatlarini modernizatsiya qilishlari kerak. Shu bilan birga, milliy ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy o'sishning mustahkam asoslarini yaratish ham ahamiyatli. Bu yo'nalishdagi chora-tadbirlar, nafaqat texnologik taraqqiyotni ta'minlaydi, balki ichki bozorni mustahkamlash va global raqobatda muvaffaqiyatga erishish uchun ham zarurdir.

Mexanizm - (yunoncha *mechanicos*) atamasi vaziyat va jarayonlarning ketma-ketligi degan ma'noni anglatadi. Mexanizm tushunchasi iqtisodiyotga mexanikadan kirib kelgan. Mexanizm atamasi XX asrning 60-yillarida juda keng miqyosda qo'llanila boshlandi. Bugungi kunda zamonaviy ilmiy tadqiqot va o'quv adabiyotlarida, xo'jalik, tashkiliy, ijtimoiy, iqtisodiy, moliyaviy hamda innovatsiya va investitsiya mexanizmlari kabi tushunchalar ko'paydi. Jumladan, mexanizm tushunchasiga turli adabiyotlarda turli talqinlarda mualliflik ta'riflari keltirilgan. Xo'jalik mexanizmi tushunchasi jamiyatda ishlab chiqarish jarayonlarini tarkibiy qismlari, boshqarish usul va tamoyillari hamda shakllarini birbiriga o'zaro bog'liq

tizim sifatida talqin qiladi. Bu jarayonda xo‘jalik mexanizmi ham ishlab chiqarish munosabatlarini rejalashtirish, me‘yorlar hamda standart xujjatlarni o‘ziga xos shakli sifatida, ham xo‘jalik yuritishni shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ilmiy-nazariy va amaliy adabiyotlarda mexanizmni mohiyati tizimlar holatining iqtisodiy mexanizm ko‘rinishida harakatga keltiruvchi kuch ta’riqasida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish sub'ektlarining bozorning rivojlanish tendensiyalarida moslashuvchan munosabatini, tannarxni optimallashtirishni, shuningdek, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yaxshilashni hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatdosh ustunlik darajasini oshirish muhim sanaladi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, to‘qimachilik sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillar sifat ko‘rsatkichi, ishlab chiqarish jarayonining davomiyligi va o‘z vaqtidaligidir, shuningdek, uning tannarxi ham juda muhim ahamiyatga ega. To‘qimachilik sanoatini barqarorlashtirishning juda muhim omillar sifatida aytishimiz mumkinki, sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish bilan birga, texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarning samaradorligini yaxshilashdan iboratdir. Bu, o‘z navbatida, tannarxni kamaytirish va ishlab chiqarishning aylanish davrini qisqartirish kabi maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish bilan bog‘liq. Bunday natijalarga erishish uchun kompleks yondashuvlar va samarali strategiyalarni qo‘llash zarur bo‘ladi. Buning uchun quyida keltirilgan nazorat va boshqaruv qarorlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- ishlab chiqarish korxonalarida operatsiyalarni zamonaviy samarali innovatsion texnologiyalar va uskunalarni joriy etish orqali ularni optimallashtirish;

- ishlab chiqarish hajmini yanada ko‘paytirish, bu esa korxonalarning mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq foydalanishga imkon yaratadi;

- tashkiliy jarayonlarni takomillashtirish orqali ortiqcha xarajatlarni qisqartirish, bu esa korxonaning rentabelligini oshirishga xizmat qiladi.

- ishlab chiqarish jarayonini va korporativ munosabatlarni muvofiqlashtirish, bu esa barcha tizimlarning o‘zaro uyg‘un ishlashini ta'minlaydi.

Zamonaviy O'zbekistonda yangi tavsifdagi iqtisodiyotni barpo etish, ayniqsa, jahon iqtisodiyotidagi globalizatsiya jarayonlari chuqurlashib borayotgan bir paytda, sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va raqobatbardoshligini oshirish dolzarb muammolarga aylanishi tabiiydir. Tashqi muhitdagi o'zgarishlarga moslashuvchanlikni ta'minlash orqali sanoat sektori o'z pozitsiyasini mustahkamlashi lozim. Shunday qilib, ushbu muammolarga muvaffaqiyatli yechim topish uchun, respublikamiz sanoat ishlab chiqarishida moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, shu bilan birga, ekologik omillarni inobatga olgan holda sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish zarur hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, aholi turmush darajasini yaxshilash va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yordam beradi. Bundan tashqari, iqtisodiyotimizning global miqyosda raqobatbardoshligini saqlagan holda sanoat ishlab chiqarishini jahon standartlari talablariga javob bera olishini integratsiyalashgan korxonalarni rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Respublikamizda to'qimachilik sanoati ish faoliyatini tashkil etish va biznes tuzilmalarini integratsiyalash borasida yetarlicha tajribalar to'plangan. Respublikamizda uzoq yillar mobaynida paxta xom ashyosi yetishtirilgan va uni dastlabki qayta ishlash orqali tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Hozirda "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibiga kiruvchi to'qimachilik korxonalari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarning asosiy qismini xorijga eksport qilinmoqda, ushbu tarmoqni yana-da rivojlantirish uchun jahon hamjamiyatiga integrallashuvni yana-da chuqurlashtirish talab etiladi. Jahon bozorida to'qimachilik mahsulotlari iste'molchilari mahsulot sifatiga o'zlarining yuqori talablarini qo'yishmoqda, shuningdek, yangi mahsulot bozorlari hududi kengaymoqda. Bu borada mavjud muammolarni jahon to'qimachilik bozori kon'yukturasini marketing tadqiqotlari asosida chuqur o'rganish natijalariga tayangan holda o'rganish talab etiladi.

Biznes tuzilmalarda ishlab chiqarish jarayonlarini o'rganishning dolzarbligi shundaki, zamonaviy korxonalar o'z faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirishga majbur bo'lishi bilan belgilanadi. Bu, biznes yuritishda yangi

texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish, ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish jarayonlarining yakuniy natijasini yanada sifatli qilishni talab etadi. Bu kabi yangiliklar korxonalar bozor sharoitlariga tezroq moslashishiga va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Yangi texnologiyalarni joriy etish esa mehnat unumdorligini ko'paytirib, mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash orqali resurslardan samaraliroq foydalanishga imkon yaratadi. Bularning barchasi korxonaning umumiy samaradorligini oshiradi va uning bozor talablariga mos kelishini ta'minlaydi. Biznes tuzilmalarda ishlab chiqarish jarayoni - bu ma'lum texnologiyalardan foydalangan holda resurslarni mijoz uchun qimmatli bo'lgan mahsulotga aylantiradigan barqaror, maqsadli o'zaro bog'liq bo'lgan faoliyat majmuidir.

Bugungi kunda hamkorlikning turli shakllarini rivojlantirishga zamin yaratadigan integratsiya jarayonlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Integratsiya tendensiyalari ko'plab iqtisodiy sohalarda hamkor subyektlarning korporativ manfaatlarini muvofiqlashtirish, muvozanatli davlat siyosatini amalga oshirish va ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sohasida faol harakatlarni izlashni oldindan belgilab beradi"⁹.

Integratsiyalashgan boshqaruvning turli jihatlarini o'rganishga katta hissa qo'shgan olimlar - A.M. Gadjinskiy, E.F. Gershteyn, L.B. Mirotin, V.I. Sergeyev, V.A. Trayonev, I.Yu. Xrabrova, R.A. Fatxutdinov, A.V. Shchepkin. "Ammo integratsiya sharoitida sanoat korxonalarini boshqarishning ko'plab usullari va mexanizmlariga qaramay, hozirgi vaqtda sanoat kooperatsiyasi sharoitida ishlab chiqarish oqimlarini ma'lum xarajatlar bilan "o'z vaqtida" rejimida boshqarish vositalari yaratilmagan. Bu esa nazariy va amaliy asoslashni talab qiladi"¹⁰.

Mahalliy iqtisodchilarning ilmiy tadqiqotlari makroiqtisodiy va mikroiktisodiy darajada barqaror iqtisodiy o'sishni belgilovchi global raqobatga qarshi omillarni aniqlash va baholash bilan bog'liq. Shu bilan birga, sanoatning

⁹Пустынникова Е.В. Интегрированный подход к согласованию корпоративных интересов // Симбирский научный вестник. 2012. № 2(8). С. 113—121.

¹⁰<https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennye-podhody-upravleniya-proizvodstvennymi-potokami-promyshlennogo-predpriyatiya-v-usloviyah-korporativnoy-integratsi>

ixtisoslashuvi korxonalarning barqaror rivojlanishi va faoliyatini boshqarishning yaxlit mexanizmi hali yetarlicha ishlab chiqilmagan. Bunday mexanizmning asosiy elementi, bizningcha, barqaror iqtisodiy rivojlanish omili sifatida sanoat integratsiyasi bo'lishi kerak.

Biznes jarayonlar integratsiyasi-bu kompaniya ichidagi turli bosqichlar va operatsiyalarni birlashtirish, uning maqsadi samarali va muvofiqlashtirilgan ish tizimini yaratishdir.

Biznes tuzilmalarining integratsiyalashuv jarayonini boshqarish biznes risklarini boshqarish, inqirozni boshqarish, iqtisodiy xavfsizlikni boshqarish va barqaror rivojlanishni yagona mantiqiy zanjirga bog'laydi.

Jahon hamjamiyatida yirik firma, o'rta firma va kichik firmalar odatda tarmoqlar, hududlar, shtatlar va boshqa ijtimoiy shakllanishlar kabi murakkabroq darajadagi tizimlarni tashkil etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar sifatida qaraladi. Mulkchilikning turli shakllari, ko'lami va faoliyat turlari bo'lgan korxonalar ko'p komponentli dinamik ob'ektlar bo'lib, ularning faoliyati murakkab ichki va tashqi qonunlarga bo'ysunadi. Korxonalar faoliyatining ichki tamoyillari kompaniya ichidagi boshqaruv tomonidan boshqariladigan o'zgaruvchilardir, tashqi makro muhit esa korxonaga deyarli bir tomonlama ta'sir ko'rsatadi.

Xom ashyoni qazib olishdan tortib, yakuniy mahsulotgacha bo'lgan butun texnologik zanjirni o'z ichiga olgan vertikal integratsiya. Bu yo'nalish, ishlab chiqarish jarayonlarini uzluksiz va samarali boshqarish imkonini yaratadi, resurslardan maksimal darajada foydalanish va mahsulot sifatini oshirishga yordam beradi;

Gorizontal integratsiya, ya'ni klasterlar yaratish va neft-kimyo hamda kimyo parklarini shakllantirish. Bu, bir nechta kompaniyalar yoki ishlab chiqarish faoliyatlari o'rtasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga va ulardan maksimal foyda olishga xizmat qiladi, shu bilan birga, tarmoqdagi o'zgarishlarga tez moslashish imkonini yaratadi;

Muhandislik markazlari va malaka markazlarini tashkil etish. Bular o'z navbatida, sanoatning texnik va kasbiy salohiyatini oshirish, malakali kadrlar tayyorlash va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish uchun zarur infratuzilma yaratilmoqda. Bu chora-tadbirlar tarmoqlarning raqobatbardoshligini kuchaytirib, ularning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi hamda iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanish uchun mustahkam asos yaratadi. Bunday holda, ma'lum bir korxona va texnologik zanjir ishtirokchilari o'rtasida o'rnatilgan munosabatlarni quyidagi hollarda klassik subpudrat shartnomalari bilan solishtirganda ishlab chiqarish integratsiyasi deb atash mumkin ¹¹:

-birinchidan, yetkazib beruvchi mahsulotni mijozning asosiy operatsiyasidan oldingi ishlab chiqarish bosqichida ishlab chiqarishi kerak, klassik subpudrat operatsiyalarida esa yetkazib beruvchi o'z mahsulotlarini keyinroq ishlab chiqarishni boshlaydi;

-ikkinchidan, ishlab chiqaruvchi alohida ishlab chiqarish operatsiyasini to'liq yetkazib beruvchining javobgarligiga o'tkazganda, ma'lum bir ishlab chiqarish tuzilmasini shakllantirish, odatda yetkazib beruvchining roli mijoz tomonidan ishlab chiqilgan spetsifikatsiya asosida oddiy komponentlarni ishlab chiqarish bilan cheklanadi;

-uchinchidan, ishlab chiqaruvchi yetkazib beruvchiga qaram bo'ladigan sxemani qabul qilganda, ikkinchisi yagona ta'minot manbai maqomini olganida (ishlab chiqaruvchi klassik sxemadan farqli o'laroq) ishlab chiqarish tuzilmasining xarakteristikaga muvofiqligi¹².

Ishlab chiqarishning kapital sig'imining oshishi va yangi mahsulotlarni chiqarishni tashkil etish dasturlarining murakkabligi ham katta moliyaviy resurslarni talab qiladigan ta'sir ko'rsatadi. Demak, bir tomondan, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va korxonalar o'rtasida mehnat taqsimotini chuqurlashtirishga bo'lgan ob'ektiv ehtiyoj mavjud. Ikkinchi tomondan esa, yangi

¹¹Миллер А. Е. Исследование альтернативных вариантов интеграционных взаимодействий производственных структур // Вестник Омского университета. Серия «Экономика». - 2013. - № 3. С. 105-113.

¹²<https://cyberleninka.ru/article/n/promyshlennaya-integratsiya-kak-faktor-ustoychivogo-razvitiya-ekonomiki>

mahsulot turlarini ishlab chiqish va yaratish uchun bir nechta korxona kuch va resurslarini birlashtirishga intilmoqda. Bunday sharoitda strategik boshqaruv muammolarida I. Ansoff tomonidan ilgari surilgan sinergiya naqshlari paydo bo'ldi:

- mamlakatimizda ilg'or yutuqlaridan yuqori maksimal darajada foydalanish asosida ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini, ularning yuqori texnologik darajasini oshirish, xorijiy hamkorlikdagi korxonalar bilan texnologiyalarni samarali ayirboshlash;

- menejment va marketing amaliyotlaridan xorijiy tajribani joriy etish;

- yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish yoki yangilarini modernizatsiya qilishni amalga oshirish;

- import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish natijasida chet el valyutasini tejash;

- ishlab chiqarish korxonalar xarajatlarini maksimal darajada tejashga erishish;

- korxonaning o'z aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojning sezilarli darajada kamayishi;

- investisiya fondlari aylanmasini tezlashtirish;

- bo'sh turgan ishlab chiqarish quvvatlarini yuklash;

- ishchilarning bandlik darajasini oshirish.

Biz aniqlangan afzallik va imtiyozlarni foydani va shunga mos ravishda xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi ittifoqlarining barcha ishtirokchilarining kapital qiymatini oshirishning asosiy omillari deb hisoblaymiz.

Hozirgi bosqichda asosiy maqsadlardan biri sifatida sanoat korxonalarining faoliyati va rivojlanishining iqtisodiy barqarorligini ta'kidlash zarur. Ushbu maqsadning mohiyati to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita turli xil ilmiy maktablar tomonidan ilgari o'rganilgan va ixtisoslashtirilgan adabiyotlarda tasvirlangan korxonalarning boshqa iqtisodiy maqsadlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin ¹³.

¹³Kolass B. Korxonaning moliyaviy faoliyatini boshqarish. Muammolar, tushunchalar va usullar: Darslik. nafaqa / Tarjima. Fransuz tilidan Ed. Prof. MEN KIRISHMAN. Sokolova. — M.: Moliya, BIRLIK, 1997. — 576 p.

Masalan, neoklassik iqtisodiy nazariyada korxonaning daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida o'lchanadigan foydani maksimal darajada oshirishga intiladi. Shu munosabat bilan korxonaning moliyaviy natija olish qobiliyati sifatida belgilangan rentabellik ko'rsatkichlari batafsil o'rganildi. Boshqaruv nazariyalari tarafdorlari korxonani turli maqsadlarga ega bo'lgan shaxslar guruhi sifatida ko'rib, asosiy narsa foyda emas, balki foydali faoliyat ekanligini ta'kidladilar.

Xususan, O.E. Uilyamson (1964)ning modelida, korxonaning asosiy maqsadi - ish haqi, xodimlar soni, investitsiyalar hajmi va xarajatlarni qoplash uchun zarur bo'lgan daromad kabi muhim o'zgaruvchilarni hisobga olgan holda, foydali faoliyatni maksimal darajada oshirishdir. Bunda, korxona o'z resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlab, daromad olishni eng yuqori darajaga olib chiqishga intiladi. Boshqacha qilib aytganda, korxona ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini xarajatlarni optimallashtirish, xodimlarning mehnat unumdorligini oshirish, investitsiyalarni optimal taqsimlash va xarajatlarni boshqarishda samaradorlikni ta'minlash orqali o'z rentabelligini oshirishni maqsad qilgan. Ushbu jarayonlarning har biri korxonaning umumiy samaradorligini oshirishga yordam beradi, shuningdek, uzoq muddatda barqaror rivojlanish va o'sish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Integratsiyalashgan korxona o'zining asosiy rolini faqat ishlab chiqarishni rivojlantirish bilan cheklanmasdan, balki tizimda ishtirok etuvchi barcha sub'ektlar o'rtasida tashkiliy va texnologik yetakchilikni ham qo'lga kiritishi lozim. Ya'ni, integratsiyalashgan biznes tuzilma faqat mahsulot ishlab chiqarishda oldinda turish bilan cheklanmay, balki o'zaro hamkorlik va texnologik integratsiya jarayonlarini boshqarishda ham yetakchi bo'lishi lozim. Masalan, go'sht mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan to'qimachilik korxonalari tuzilganida, ularning tuzilishi va ishlab chiqarish masshtabiga qarab, integratsiyalashgan korxona o'z funksiyalarini bir nechta sohalarga taqsimlashi mumkin. Bunday holatda, go'shtni qayta ishlashga ixtisoslashgan korxona, masalan, go'shtni qayta ishlash zavodi yoki sut mahsulotlarini ishlab chiqaradigan korxona integratsiyaning funksiyalarini

o'z zimmasiga oladi. Bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshirish, resurslarni optimal tarzda taqsimlash va bozor talablariga tezkor javob berish imkonini beradi.

Shuningdek, integratsiyalashgan ishlab chiqarish tuzilmasini shakllantirishda korxonaning moliyaviy va ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan bir qatorda, uning tashkiliy va texnologik salohiyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonlarni samarali boshqarish, soha ichidagi raqobatbardoshlikni oshirish va bozor talablariga moslashish uchun zarur bo'lgan muhim tamoyillardan biridir.

Ma'muriy organlar tomonidan qo'llab-quvvatlash va yordam berish prinsipi. Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarish klasterlarining muvaffaqiyatli faoliyati ko'p jihatdan korxonalar rahbarlari klasterning potensial ishtirokchilari tuman va viloyat ma'muriyat organlari o'rtasidagi munosabatlarning xususiyati bilan bog'liq.

Tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki, yaxlit biznes tuzilmalari davlat moddiy va moliyaviy (boshlang'ich) yordami bilan ta'minlangan hududlarda ular nisbatan samaraliroq ishlaydi. Sanab o'tilgan tamoyillar klasterning barcha shakllariga taalluqlidir. Shu bilan birga, muayyan sharoitlarga qarab, ular asosida qabul qilingan tashkiliy hamda iqtisodiy amaliy qarorlar sezilarli darajada farq qilishi mumkin.

Zamonaviy ishlab chiqarish jarayoni - bu xom ashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlar va boshqa mehnat buyumlarini jamiyat ehtiyojlarini qondiradigan tayyor mahsulotga aylantirishning murakkab va ko'p bosqichli jarayonidir. Ushbu jarayon ko'plab tizimli bosqichlardan tashkil topgan bo'lib, har bir bosqichda turli xodimlar, asbob-uskunalar va texnologik vositalar ishtirok etadi.

Muayyan turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayoni korxona ichida amalga oshiriladigan barcha harakatlar va ishlarni o'z ichiga oladi. Ushbu harakatlar xodimlar va asboblarni o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ko'zda tutib, ishlab chiqarishning samarali amalga oshirilishiga yordam beradi. Ishlab chiqarish jarayoni, asosan, mehnat obyektlarining holatini o'zgartirish yoki aniqlashga

qaratilgan texnologik jarayonlardan iborat bo'ladi. Texnologik jarayonlarda mehnat ob'ektlarining geometrik shakllari, o'lchamlari yoki fizik-kimyoviy xususiyatlari o'zgaradi.

Shuningdek, mahsulot sifatini oshirish va uni tekshirish jarayonlarida texnologik bo'lmagan elementlar ham muhim rol o'ynaydi. Ishlab chiqarish jarayonida tabiiy jarayonlarning roli ham katta. Bu holatda insonning bevosita aralashuvi bo'lmasdan, tabiiy kuchlar ta'sirida mehnat obyektlari o'zgaradi. Misol uchun, bo'yalgan qismlarning havoda qurishi, quymalarni sovutish, quyma qismlarning qarishi kabi jarayonlar tabiiy jarayonlarga misol bo'la oladi.

Ishlab chiqarish jarayonlari o'z vazifasi va maqsadiga ko'ra asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish jarayonlariga bo'linadi. Asosiy ishlab chiqarish jarayonlari esa korxona ishlab chiqaradigan asosiy mahsulotlarni tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Yordamchi jarayonlar esa, asosiy jarayonlarning uzluksiz faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'ladi. Bu jarayonlar, asosan, uskunalarni ta'mirlash, asbob-uskunalarni ishlab chiqarish, bug' va siqilgan havo ishlab chiqarish kabi xizmatlar va amallarni o'z ichiga oladi. Xizmat ko'rsatish jarayonlari esa asosiy va yordamchi jarayonlarning to'g'ri ishlashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan qo'shimcha xizmatlarni bajaradi. Bunga tashish, omborda saqlash, qismlarni tanlash va yig'ish kabi jarayonlar kiradi.

Zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida, ayniqsa avtomatlashtirilgan tizimlarda, asosiy va xizmat ko'rsatish jarayonlarini birlashtirish tendensiyasi kuchaymoqda. Misol uchun, moslashuvchan avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlarida asosiy, yig'ish, ombor va transport operatsiyalari yagona jarayonga birlashtirilgan bo'ladi, bu esa ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Asosiy ishlab chiqarish jarayonlari uch bosqichdan iborat: **xarid qilish, qayta ishlash** va **yig'ish**. Xarid qilish bosqichi materiallar va blankalarni olishni o'z ichiga oladi, masalan, materiallarni kesish, quyish yoki shtamplash. Qayta ishlash bosqichi blankalarni tayyor qismlarga aylantirishni ko'zda tutadi, bunda ishlov berish, issiqlik bilan ishlov berish, bo'yash va elektrokaplama kabi jarayonlar amalga oshiriladi. Yig'ish bosqichi esa ishlab chiqarish jarayonining yakuniy

bosqichidir, unda butlovchi qismlar yig'iladi, mashinalar va asboblarni sozlanadi va sinovdan o'tkaziladi.

Ishlab chiqarish jarayonlari ko'plab jarayonlar va operatsiyalardan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ishlab chiqarish tizimining samarali ishlashini ta'minlaydi. Tashkiliy jihatdan ishlab chiqarish jarayonlari **oddiy** va **murakkab** jarayonlarga bo'linadi. Oddiy jarayonlar - bu bitta mehnat ob'ekti bilan bog'liq bo'lgan ketma-ket amalga oshiriladigan harakatlardan iborat bo'lib, masalan, bitta qismni ishlab chiqarish. Murakkab jarayonlar esa bir nechta mehnat ob'ektlarida amalga oshiriladigan va turli operatsiyalarni o'z ichiga oladigan jarayonlardir, masalan, yig'ish yoki butun mahsulotni ishlab chiqarish jarayonlari bir nechta turli operatsiyalarni o'z ichiga oladi va bir nechta mehnat ob'ektlarida amalga oshiriladi. Bu kabi jarayonlar murakkab tuzilishga ega bo'lib, yakuniy mahsulotni yaratishga xizmat qiladi.

Ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etish, xodimlar, asbob-uskunalar va materiallarni yagona tizimga birlashtirishni, shuningdek, asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish jarayonlarini makon va vaqt jihatidan uyg'unlashtirishni ta'minlashni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish jarayonlarining fazoviy joylashuvi va korxonaning ishlab chiqarish strukturasi to'g'ri tashkil etilishi katta ahamiyatga ega. Bu esa, o'z navbatida, korxonaning tarkibiy bo'linmalarining ixtisoslashuvi va ularning o'rtasidagi samarali aloqalarni o'rnatishga yordam beradi.

Ishlab chiqarish korxonasini ishlab chiqarish jarayonida asbob-uskunalar parkining tarkibini aniqlash, uning unumdorligi, o'zaro almashinishi va samarali foydalanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda loyihaviy hisob-kitoblar amalga oshiriladi. Bo'limlarning ratsional sxemalari, jihozlarni joylashtirish, ish joylari ham ishlab chiqilmoqda. Uskunalar va ishlab chiqarish jarayonining bevosita ishtirokchilari ishchilarning uzluksiz ishlashi uchun tashkiliy sharoitlar yaratiladi.